

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Sharafiddinov

Farg'ona viloyatini Rossiya imperiyasining xom ashyo bazasiga aylantirilishi
(XIX asrning ikkinchi yarmi)..... 203

M.M.Temirova

O'zbekistonda ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlarining dastlabki bosqichlari 208

Q.Sulaymonov

Iqtisodiyotni globallashuvida informatsiyaning o'rni 213

X.E.Xodjamberdiyev

Ikkinchi jahon urushi yillarda O'zbekistonda agrar sohani rivojlantirilishi va uning aholi turmush tarziga ta'siri..... 216

A.A.Xakimov, O.Sh.Ubaydullayev

Farg'ona vodiysi shaharsozlik madaniyatining xususiyatlari va rivojlanishi
(Sho'rabashot dehqonchilik madaniyati misolida)..... 222

M.M.Abdullayeva

Zamonaviy o'zbeklar shaxsiyatida gender stereotiplarining namoyon bo'lish darajasi
(Namangan viloyati misolida) 226

F.Abdurasulova

Buxoro amirligida diniy ta'llimning Amir Shohmurod va Amir Haydar hukumronligi
davrida rivojlanishi 232

A.A.Aloxunov

Yangilangan saylov tizimi – yurt taraqqiyotining kafolati..... 236

M.B.Siddiqov

Ikkinchi jahon urushi yillarda pensiya tizimi 241

G.A.Abdug'aniyeva

Harbiy xizmatga chaqiruvlarda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalasi 247

N.V.Karimova

Farg'ona vodiysi antik davr shaharlari tarixiy–topografiyasining o'rganilishi..... 252

ADABIYOTSHUNOSLIK**A.G.Sabirdinov**

Xudoyerberdi To'xtaboyevning qahramon yaratish mahorati 257

G.V.Abdullayeva

Bolalar she'riyatida lirik qahramon masalasi..... 260

S.Q.Mamatova

Nuh Alayhissalom obrazining tarixiy asoslari..... 267

N.Y.O'roqova

Yangi o'zbek she'riyatida o'simlik obrazlari talqini 271

D.A.Qahharova

Lirikada ko'ngil timsolining genezisi va tarixiy takomili..... 280

S.A.Xaqnazarova

An'ana va novatorlik: nazariy asos, takomil va turlar 287

M.Islomova

Hayot haqiqati va badiiy tafakkur 290

A.A.Qayumov, D.G'.Gafurova

Badiiy detalning poetik vazifasi (X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida) 294

Y.B.Eshmatova

Turk hikoyachiligidagi an'ana va yangilanishlar sintezi..... 299

Д. О.Турдалиев

Интеграция устного народного творчества в сказках а.с. пушкина: фольклорные корни и литературные трансформации 303

F.B.Sultonqulova

Usmon Azim she'riyatida lirik qahramon tabiatи 306

G.A.Jurayeva

Bolalar she'riyatida shakliy -mazmuniy yangilanish hamda izlanishlar..... 310



УО'К: 82-3.087.5.82-1. 58

BADIY DETALNING POETIK VAZIFASI
(X.Do'stmuhammadning "Jodi" asari misolida)

ПОЭТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ДЕТАЛИ
(На примере произведения «Джоди» Х. Дустмухаммеда)

POETIC FUNCTION OF ARTISTIC DETAIL
(Using the example of the work "Jodi" by H. Dustmuhammed)

Qayumov Abduvahbob Abdurashidovich¹ 

¹Farg'ona davlat universiteti doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Gafurova Dilobar G'ayrataliyevna² 

²Farg'ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy detalning asardagi g'oyaviy-badiiy funksiyasi, detalning asar strukturasidagi ahamiyati yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqod xulosalari yoritilgan. Detal yoki detallar galareyasining struktural vazifalariga kengroq e'tibor qaratish, ijodkor mahoratini o'rganish borasidagi fikrlar muhokama qilingan. Shu maqsadda Xurshid Do'stmuhammadning "Jodi" hikoyasidagi bir qator detallar atroficha tahlil qilingan. Ularning asar badiiy g'oyasini yoritishda, qahramonlar xarakterini ochib berishda, voqelik yaratishdagi ahamiyati e'tiborga olingan.

Аннотация

В данной статье освещены выводы научных исследований об идеально-художественной функции художественной детали в произведении, значении детали в структуре произведения. Обсуждалась идея изучения умения художника уделять больше внимания структурным задачам галереи деталей или деталей. Для этого в рассказе Хуршида Достмухаммада «Джоди» подробно проанализирован ряд деталей. Отмечалось их значение в выяснении художественной идеи произведения и раскрытии характера героев.

Abstract

In this article, the conclusions of scientific research on the ideological-artistic function of the artistic detail in the work, the importance of the detail in the structure of the work are highlighted. The idea of studying the artist's skill to pay more attention to the structural tasks of the gallery of details or details was discussed. For this purpose, a number of details have been thoroughly analyzed in the story "Jodi" by Khurshid Dostmuhammad. Their importance in elucidating the artistic idea of the work and revealing the character of the heroes was noted.

Kalit so'zlar: badiiy detal, "Jodi" asari, asar strukturasi, chivin detali, Gilotin, ramziy timsol, badiiy obraz, qahramonlar xarakteri.

Ключевые слова: художественная деталь, произведение «Джоди», структура произведения, комариная деталь, Гильотина, символический образ, художественный образ, характеры героев.

Key words: artistic detail, "Jodi" work, structure of the work, mosquito detail, Guillotine, symbolic image, artistic image, character of heroes.

KIRISH

Bilamizki, detal "badiiy asarda muayyan mazmun ifodalovchi, g'oyaviy-badiiy yuk tashuvchi tafsilot"[1,88] hisoblanadi. Detalning badiiy asardagi funktsiyasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Uning turli qirralari olimlar chig'irilqlaridan o'tgan hamda yozuvchilar mahoratidan darakchi sifatida ilmiy asarlarda ta'kidlangan. Biroq detalning asar strukturasidagi ahamiyati borasida yetarlicha o'rganishlar amalga oshirilmagan. Birgina detalning yoki detallar galareyasining struktural vazifalariga kengroq e'tibor qaratish ijodkor mahoratini o'rganish borasidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Xurshid Do'stmuhammadning "Jodi" hikoyasida ham bir qator detallar mavjudki, ular asar badiiy g'oyasini yoritishda, qahramonlar xarakterini ochib berishda muhim ahamiyatga ega

ADABIYOTSHUNOSLIK

hisoblanadi. Dastlab hikoyada qo'llangan chivin detaliga e'tibor qaratamiz. Mazkur detal hikoyaning yettita joyida qisqa epizodlarda qo'llangan xolos. Biroq bиргина shu detal struktural, psixologik, ramziylik, voqealikka uyg'unlik kabi ko'plab ma'nolarni ifodalagan hamda ko'plab vazifalarni bajargan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Detal badiiy voqelikni yaratish vositasi, ashyosi bo'lib"[1,88] , "Jodi" hikoyasida ham chivin detali badiiy voqelikni yaratishda ma'lum o'ringa ega hisoblanadi. Shuningdek, badiiy voqelik badiiy asar strukturasing mukammalligini ta'minlovchi muhim unsurlardan sanaladi. Chivin dastlab hikoyaning boshida tergovchilar bilan birga paydo bo'ladi. Bu o'rinda ramziylik mavjud bo'lib, chivinning qon so'rvuchilik funksiyasi orqali shafqatsiz tergovchilarga ishora qilingan. Shuningdek, dastlabki ko'rinishda chivin ham, tergovchilar ham ovozsiz kirib kelishadi, mahkumlar ham ovozsiz o'tirgan edi. Asar boshidagi bu dahshatli jimjilik ortida nimadir bor, hamma shu nimanidir kutyapti. "Hikoyada bayon qilinayotgan voqelik xarakter orqali jonli va ta'sirchan ifoda etilishi shart"[2,16] . Adib jimjilik orqali ana o'sha sukunatning dahshatini ochib berishga harakat qilgan. Shuningdek, voqealar rivojiga hamohang ravishda keyinroq tergovchilarda ham, chivinda ham ovoz detali paydo bo'ladi.

Chivinning peyzaj manzarasini umumiyl tasavvur qilish uchun ham o'ziga xos vazifasi mavjud bo'lib, odatda bu mavjudot zax, qarovsiz joylarda, nam havoda yashashga o'rgangan. O'z-o'zidan qamoqsona tasviri ham umumiyl holda "yoqimsiz ilimiliq nam havo" tarzida beriladi. Chivin detali bu tasviri to'ldirish funksiyasini bajargan. Qamoqxonada o'limini kutayotgan ikki mahkumning jismoniy hamda ruhiy holati achinarli axvolda ekanligi mana shu umumiyl manzara va detallar tasviri yordamida to'laroq namoyon bo'ladi.

Qamoqxonadagi sukunat dahshatini dastlab tergovchining ovozi buzadi. O'z-o'zidan mahkumlar uchun bu ovoz ham yoqimli emas. O'limini kutayotgan inson uchun eng go'zal ovoz ham yoqmasligi tabiiy, bu yerda esa tergovchining tovushi mahkumlar uchun xuddi o'lim sharpasiga o'xshaydi. Bu psixologik holatni to'laroq tasvirlash uchun esa chivinning ovozi qo'shiladi:

"Taqir kal boshga qo'ngan chivinning g'ingillab havoga ko'tarilgani eshitildi"[3,75] .

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Badiiyatda bittagina mezon bor – bu ma'no"[4,103] . Bu hasharot va uning ovozida ham ma'no, mazmun bor. Chivin zararkunanda, og'riq beruvchi bo'lganidan insonlar tomonidan uning ovozi ham yoqimsiz tovush sifatida qabul qilinadi. Bu ovoz mahkumlarning psixologik tushkun holatini ifodalashda katta vazifa bajargan. Chivin asar boshida ham g'ingillab kirib kelgan, biroq bu ovoz mahkumlarga eshitilmagan. Ularning ruhiy holati bu ovozni eshitadigan axvolda emasdi. Tergovchi nutqidan so'ng esa ularning biroz diqqati jamlanadi, biroq psixologik tushkunlik sabab tergovchining ham, chivinning ham ovozi hamohanglikda yoqimsizlik kayfiyatini ifoda etadi. "Kitobxon e'tibor bermay o'tishiyam mumkin bo'lgan bunday detallar yo yo'l-yo'lakay shunchaki eslab qo'yiladi (ammo izsiz ketmaydi) yoki bayon qilinayotgan voqelikka singdirib yuboriladi"[5,16]. Chivin detali yordamida qahramonlarning psixologik holati yorqinroq tasvirlangan va bu yozuvchining mahorati sanaladi. Mazkur holatda "detal – lo'nda, yorqin va obrazli predmet, belgi bo'lib, u tasvir ob'ektini kitobxonga aniq ko'rsatishga xizmat qiladi"[8] .

Asarning bosh qahramoni Gilotin – shifokor, olim. U "magnetizim bo'yicha mutaxassis" va Frantsiyada "tibbiyot akademiyasining asoschilaridan biri" hisoblanadi. Demak, jamiyatda obro', faoliyat nuqtai nazaridan yuqori darajadagi o'ringa ega arboblardan biri bo'lgan. Deputat sifatida xalq hayotini yaxshilash borasida vazifalarni zimmasiga olgan mas'ullardan hisoblangan. Biroq asar qahramonlari oddiy insonlar turmushini yaxshilash harakatida bo'lmaydi. Xalq turmush tarzidan ko'ra qaldirg'och ovini, qulf yasashni xush ko'radigan qirol rahbarlik qilgan, xalqning dardi, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy muammolarini hal etish o'rniqaga xalqaro qatlama yuzaki dabdaba, quruq obro' orttirish harakatida bo'lgan deputatlar bosh bo'lgan siyosiy qatlama tanazzuli hikoyaning asosiy mazmuni sanaladi. "Mazmunning hayotiyligi haqqoniylilik bilan bog'liq ekanligi shubhasiz"[6,92]. Chivinning keyingi "tashrifi" chog'ida Gilotinga asosiy ishi, xizmat vazifasi eslatiladi va xalqqa yordam berish o'rniqaga ularni o'ldiruvchi qurol yaratish ishida bosh bo'lgani tanqidga olinadi:

– Asl sohangiz nima edi?

– Magnetizm bo'yicha mutaxassis... Tibbiyot akademiyasining asoschilaridan biri.

– Magnetizm, yoinki, shifokorlikning o'lim jazosi ijrosi masalasiga nechog'li dahli bor?

Jozef jim bo'lib qoldi. Tanish chivin g'ingillaganicha tumshug'ining yonginasidan imillab suzib o'tdi. Savol takrorlandi:" (81-bet)

Bu o'rinda "tanish chivin" deputatlar e'tibor qaratmagan "tanish muammolar"dir. Uning "immilab, suzib o't"ishi xalq dardiga oid masalalarning immilab, kam e'tibor qaratilganligiga ishora hisoblanadi. Gilotin esa tergovchi bergen haqli savol oldida gapirolmay qoladi. Chivin detali bu o'rinda Gilotinning ruhiy xolatini, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tanazzulini ochib berish uchun xizmat qilgan. Shuningdek, asosiy masalalar mohiyatidan uzoqlashib ketgan, asosiy vazifalarini unutgan deputatlar korpusiga ishora sifatida ham yuzaga chiqadi. Ya'ni Gilotin o'z davrining tipik vakilidir. "Tiplarda muayyan ijtimoiy guruh, sinf, xalq uchun xos hisoblangan xususiyatlar mujassamlashgan bo'ladi"[7,52].

Tasvirda yozuvchi Xurshib Do'stmuhammadning mahorati ko'zga tashalanadi. Chivinning "g'ingillaganicha tumshug'ining yonginasidan immilab suzib o'tdi" degan tasviri ko'pgina mazmun ifodalangan. Dastlab og'zining so'zi o'rniga "tumshuq" so'zi qo'llanishi mualifning Gilotinga munosabatini bildirib, uni odam sifatida emas hayvon sifatida ko'rayotganini bildiradi. Chunki tumshuq so'zi hayvonlarga nisbatan ishlatalidi. Chivinning uchishiga nisbatan "suzib o'tdi" birikmasining qo'llanishida esa, Gilotin miyasidagi fikrlarning "ucholmay" qolgani, javob berishga qiynalaganini bildiradi. Bilamizki, suzish jarayoni og'ir jismoniy harakat hisoblanib, insondan ko'p kuch talab qiladi. Suzish jarayonida insonnig tezligi yuqori bo'lmaydi. Gilotinning haqli savol qarshisidagi ruhiy holatida ana shu aqliy va ruhiy tezlikning pasayganligiga ishora mavjud. Gilotinda tibbiyot sohasi bo'yicha yaxshigina mutaxassis bo'lishiga qaramay, vaqtini o'lim quroli uchun behuda sarf qilganligini anglashi jarayoni kechayotgan edi. Adib garchi kech bo'lsa-da, qahramonining xatolarini anglashi uchun imkon beradi. "Bu bilan hozirgi hikoyanavislari inson "men"ini chuqurroq ochishga erishmoqdalar"[2,22]. Shuningdek, tibbiyot insonlarni sog'ligiga, uzoq yashashiga xizmat qiluvchi soha hisoblanadi, Gilotin esa bunga zid ravishda o'lim quroli ustida ish olib boradi. Bu zidlik jamiyat ziyoli qatlami dunyoqarashidagi, faoliyatidagi kamchiliklarni yorqinroq ochishga xizmat qilgan. Gilotin mazkur kamchiliklarni so'roq davomida anglab yetadi va gapirolmay qoladi. Uning ko'z oldidan aslida "tanish chivin" emas, tanish kamchiliklar, o'z hayotining behuda kechgan onlari o'tayotgan edi.

Asarda chivin to'rtinchi bor paydo bo'ladi. Jamiyat muammolarini hal etishdan uzoqlashib ketib, quruq dabdabalar ortidan quvganligini – xatolarini anglagan Gilotin bu safar chivinning qanot qoqishini, ya'ni olim va deputat sifatida zaruriy masalalarni aytishni, amalga oshirishni istaydi. Biroq endi chivin uchmaydi.

– Men... Men ilgari surgan g'oya... g'oyani...

– Amalga oshirishga kirishdingiz. Shundaymi? Marhamat, davom etsinlar.

Jozef ko'z qiri bilan alanglab, qaygadir g'oyib bo'lgan chivinni izladi, shu tobda uning qanot qoqishidan kamera sukunati buzilishini juda-juda istadi".

Gilotin uchun aybini anglashi – o'z xatosini tushunishi og'ir masala edi. Chunki shu paytgacha u o'zini jamiyat, davlat uchun katta va to'g'ri ishlar qilgan deb bilardi. Yurt taraqqiyoti uchun muhim sanalgan masalalar o'miga xalq uchun foydasi bo'lmagan "jodi" kabi narsalarga o'ralashib qolganligini anglashi natijasida nutqida psixologik buzilish xosil bo'ladi. Nutqida uzilish yuz berib, gapirolmay qoladi. Bu Gilotindagi ruhiy tushukunlik ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, Gilotin biroz oldin "suzib yurgan" chivinni "qanot qoqishi"ni istashi Gilotinning iztiroblariga ishoradir. Chunki, shu paytgacha chivin kabi Gilotinning hayollari, fikrlari, tasavvurlari uchib yurgan edi. U o'zini aybdor hisoblamasdi. Tergovchining savollaridan so'ng o'zining ayblarini anglagach, uning hayollari, fikrlari sekinlashib qoladi. Shu jarayonda u chivinni axtaradi, fikrlari chivin kabi uchishini – tergovchining savollariga dadillik bilan asosli javoblar berishini istaydi. Biroq Gilotin tomonidan demokratiya namunasi, olamshumul yangilik, deb bilgan ishlarning bir lahzada arzimas, quruq safsataga aylanib qolishi uning ruhiyatiga qattiq ta'sir qiladi. Gilotinning psixologik holati shu darajada yomon ediki, hatto chivinning yoqimsiz ovozi yordamida bo'lsa-da suhbatning bo'linishini, hayollarining bo'linishini istar edi. "Personaj nutqini individuallashtirish orqali uning shaxsiyati, dunyoqarashi, muayyan holatdagi ruhiyati haqida o'quvchiga ko'p narsalarni yetkazish mumkin"[1,49] . Gilotin nutqidagi psixologik holat tasviri yordamida bu kabi sermazmun ma'no ifodasi, albatta, Xurshid Do'stmuhammadning badiiy mahorati hisoblanadi.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Chivin detali beshinchi marotaba Gilotin hikoyasining o'rtasida paydo bo'ladi. Deputatlik chog'ida jodi dastgohining qonunga kiritilishi jarayonida qiroq qabulida bo'lgan suhbat haqida so'zlab berayotganda Gilotinning qamoqdagi sherigi uch kundan buyon indamay o'tirgan Morti birdan ovoz chiqaradi:

"...churq etib og'iz ochmaslik yo'lini tutgan qismatdoshining jon taslim qilgandek "im" tortishidan... havoga ko'tarilgan chivin qo'nalg'a topolmay gir-gir aylanishga tushgan edi, xolos"(94-bet).

Bu tasvirda asosan Mortining ruhiy holati e'tiborga olingen bo'lsa-da, Gilotin hikoyasiga ham mazmuniy aloqadorlik mavjud. Gilotining jinoyatchilarni qiynamay bir xil usulda o'ldirish taklifini qonun bilan himoyalash taklifi qiroqla kiritiladi. Qirol mazkur masalani muxokama qilish uchun Gilotinni saroya taklif qiladi. Uchrashuvda asosiy masala qolib, qirolning qaldirg'och ovi, qirolning qulfi yasashga qiziqishi bo'yicha suhbat bo'ladi. Gilotinning tilyog'lomalik, laganbardorlik faoliyati avjiga chiqqan onlar hikoya qilinayotgan paytda Mortining ovozi hikoyani bo'lib qo'yadi.

Mortining "im"lab ovoz chiqarishi va peshonasiga shapatilab urishi odatda afsus-nadomat mazmunini anglatuvchi psixofiziologik holat hisoblanadi. Bu holat bir qarashda Mortining jallodlik vazifasida ishlaganiga afsuslanish ma'nosini anglatsa, boshqa tomondan Mortining bunday qiroq va deputatlarning yurt ishiga e'tiborsizligiga norozilik sifatida ham yuzaga chiqadi. Morti ruhiyatidagi g'alayon o'zini aybsiz aybdor deb bilishi, faqat topshiriq bajarganligi uchun ham jinoyatchi bo'lganligidan norozi kayfiyatda ekanligini anglatadi. "Havoga ko'tarilgan chivin qo'nalg'a topolmay gir-gir aylanish"i Morti ruhiyatidagi g'alayonlarga ishoradir. Morti chivin qo'nalg'a topolmay qiyalnigani kabi o'z savollariga javob topolmay qiyalayotgan edi. Chivin detalidagi bu harakat yana bir ramziylikni ifodalagan. "Xususan, ramziy timsollar va majoziy obrazlar orqali tasvirlash tufayi hozirgi hikoyalarda falsafiy ma'no yuki ortib borayotganligi haqiqatdir"[2,26].

Keyingi "tashrif" Morti hikoyasining orasida beriladi. Mortining ruhiy iztiroblar fonida hikoya qilib berayotgan jallod sifatidagi faoliyati chivin epizodi bilan yana-da ta'sirli bo'lishiga erishiladi. Morti – jallod, bir kunda yetmishtadan yuztagacha mahkumlarni Gilotin yaratgan jodida boshidan ayirgan. Lekin o'zi dastgoh dahshatini o'ylamagan. Bu dastgohni yaratgan bo'lsa-da, Jozef Gilotin ham bu o'lim quroli dahshatini tanasida his qilib ko'rмаган. Yuzlab insonlar kallasi chopilgani aytيلayotgan bir paytda paydo bo'lgan qisqagina epizod, ya'ni Jozefni chivin chaqishi epizodi va hasharot chaqqandagi og'riq detali jodining dahshatini his qilishga yordam beradi:

" – Inqilob kunlari qo'l-qo'lga tegmay qoldi. Elliktalab... yetmishtalab mahkum kallasidan judo etilgan kunlar gilotin zap og'irimizni yengil qildi. Boshqa hech bir jazo usuli bu qadar jonimizga ora kirolmasdi..."

Jozef kiftining ustiga qo'ngan chivinning tumshug'iga tikilib, uni o'z holiga qo'ydi. Chivin nishini doktorninig terisiga suqdi, doktor achishgan qo'lini bexosdan silkidi, chivin uchib borib Mortining kiftiga "langar" tashladи. Morti buni sezmadи, u hamon o'ylarini jamlashga qiyalayotgan, bu uning xotiralarini boyagidan battarroq poyma-poy vaysashga tushganidan sezilayotgan edi"(108-bet).

Insonni chivin chaqsa qay darajada og'riq beradi, bu epizod aynan Morti yuzlab kallalani uzganligi haqidagi hikoya aytيلayotgan paytda sodir bo'lishi bosh kesish jarayoni dahshatini tasavvur qilishga yordam beradi. Gilotin va kitobxon o'z-o'zidan tanasida og'riqni his qilishni boshlaydi. Xurshid Do'stmuhammad chivin chaqtirish tasviri yordamida jodi dahshatini kengroq yoritishga erishgan, jamiyat muammolarining og'riqli nuqtalariga ishora qilgan. Shuningdek, chivinning Gilotin qo'lidan uchib borib, Mortining kiftiga – yelkasiga qo'nishida ham ramziylik bor: arboblar qo'li bilan yaratilgan yaxshi va yomon narsalarning, qonunlarning yuki oddiy odamlar yelkasiga tushadi, degan ma'noni anglash mumkin.

Hikoya boshida qahramonlar psixologik taranglik holatda tasvirlangan bo'lsa, asar oxirida ulardagi ruhiy betartiblikni kuzatish mumkin. Ayniqsa, Mortining holati achinarli tasvirlangan: u goh yig'i, goh kulgi bilan so'zlar, o'zini tutishida telbalik alomatlari kuzatilardi. U oddiy xalq vakili, jallodik qilgan bo'lsa-da, faqat ijrochilik funktsiyasini bajargan. Shuning uchun o'zining qanday aybi borligini bilolmay ruhiy iztiroblar ichida qolgan:

"Morti yig'ini bas qilib, to'satdan kamerani boshiga ko'targancha xaxolab yubordi. Uning kulishi nihoyatda beo'xshov, yoqimsiz eshitildi, boyagina soqoli orasiga kirib ko'zdan yo'qolgan chivin hurkib chiqib, havoga ko'tarildi.

– Chaqqi! – dedi Morti chivinning izidan o'qrayib. Chivin obdon nafsi qondirishga ulgurgani qorinchasiga rang kirganidan ko'rini turardi”(112-bet).

Bu o'rinda ham chivin ramziylik kasb etgan. Hech qanday aybi bo'limasa-da rahbarlarning har bir xatosiga oddiy xalq qoni bilan javob berishiga ishora qilingan. “Qorinchasiga rang kirgan” chivin va niyoyat niyatiga yetadi. Mortining qonini so'rib, qornini to'ydiradi. Boshqaruvdagi xato yoki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarini hal qilishda to'g'ri yo'ldan bormaslik xalqni ramziy ma'nodagi “chivin”larga yem bo'lishiga sabab bo'ladi.

XULOSA

Badiiy detallarning adabiyotdagi turli xil: ramziylik, g'oyaviylik kabi mohiyati badiiy asar strukturasida, syujet tizimida, voqeliknuing yaralishida ahamiyatlidir. “Yaxlitlik, tugallanganlik hikoya janrining eng muhim belgilari sanaladiki, ularni ta'minlashda detalning ahamiyati juda muhimdir”[5,16]. Chivin detali asar boshida ovozsiz paydo bo'ladi, keyin ovoz qo'shiladi, keyin Jozef Gilotinni chaqadi va Mortining qonini so'rib qornini to'ydiradi. Bu harakatlarning barchasi asar voqealarini rivojiga hamohang tarzda shakllantirilgan. Ya'ni asar strukturasida mohiyatni yorituvchi detallardan biri sifatida asosiy o'rinni egallagan. Hikoyada chivindan tashqari jodi, chakmon, qaldirg'och, ovoz kabi bir qator detallar ham mavjudki, ular ham asar strukturasida muhim o'r'in tutadi. Qaramonlar harakterining yoritilishi va shunga mos ravishda voqelikning shakllanishiga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Quronov D. Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013
2. Solijonov Y. Adabiyot xiyyoboni. Farg'ona: “Farg'ona” nashriyoti, 2020
3. Do'stmuhammad, Xurshid. Qichqiriq: yangi hikoyalari. – T.: “Sharq”. – 2014.
4. Rahimjonov N., Badiiyat – bosh mezon (Adabiy suhbatlar). – Toshkent: Akademnashr, 2016
5. Solijonov Y. Detallar tilga kirganda. O'zbek adabiy tanqidi: [antologiya] /tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi B.Karimov; tahriri hay'ati U.Normatov [va boshq] – T.: “TURON-IQBOL”, 2011.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. Andijon, “Hayot” nashriyoti, 2002.
7. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: O'qituvchi, 1995
8. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2634/2405>